

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jumal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., f.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya
univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ.
prof.)

ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba
univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk
chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi,
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon
univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-
Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ.
prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 3, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари	3
Ахмедова III. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати	10
Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi	15
Qalandarov M., Xushnazarova G. Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy "Lub ul bob-masnaviy" hamda Odina Eshonning "Miftoh ul-asror" asarlarning ilmga oid qisimlarining tahlili	22
Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi	30
Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish	39
Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari	46

Tilshunoslik

Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazеologik birliklar	52
Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawīyyah" asarining struktur va semantik tahlili	62
Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi	69
Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German. (second year language University)	76
Giyazova B. Ma'budalar - Sarasvati, Lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarining sinonimik (jihatdan) tahlili	86
Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi	95
Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G'iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo'shgan katta hissasi	105

Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asos'ida bosildi. Sharq mash'ali, 2024 yil 3-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.	Tarix	Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 115 To'rayev L., Qosimi H. "Boburning tojikiston o'lkalaridan xotiralari, bu zaminda qoldirgan yodgor izlari" 123 Karimov N. "Navodir al-usul" asarida islom psixologiyasining yoritilishi 132 Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida 139 Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 146 Alizade O. Tamgalarla Türk Rakamlarının Oluşturulması..... 153
	Tashqi siyosat	Sadibaqosev H. Markaziy osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va xitoy bilan hamkorligi 164 Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro-siyosiy identikligi 172 Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджане в процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство..... 180



PASHTU TILIDAGI KOPULYATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

ABDUVALIYEVA O'G'ILJON

O'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, TDSHU

Annotatsiya: Tilshunoslikda ayniqsa, afg'on tilshunosligida kopulyativ frazeologik birliklar masalasi ilmiy hamda amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur birlikning chegarasi aniq mezonni belgilashni talab etadi. Pashtu tilida kopulyativ frazeologik birliklarga oid masalalar ba'zi sharqshunos olimlarning grammatik ocherklarida qisqacha ma'lumot sifatida uchraydi, lekin ular orasida mazkur mavzuning tahlili qisqa va o'ta umumiy tarzda qayd etiladi. Sanoqli nazariy tadqiqotlardan keyin o'tgan vaqt davomida tilshunoslikda kopulyativ frazeologik birliklar haqidagi g'oyalar kengaydi, ammo uning pashtu tilida o'rganish tasnifi hanuz o'z aksini topmay kelmoqda. Agar masalaga oid tadqiqotlarning bundan ellik yil oldin nashr etilgani hamda kopulyativ frazeologik birliklar masalasi pashtu tili leksikologiyasining umumiy masalalarining tarkibiy bo'lagi sifatida qaralgani va mazkur mavzuning alohida tadqiqot obyekti bo'lmaganligi hisobga olinsa, mavzuning afg'on tilshunosligi uchun qanchalik dolzarb va muhim ekanligi ma'lum bo'ladi. Afg'on tilshunoslari asarlarining tahlili pashtu tilida kopulyativ frazeologik birliklarning aniq mezonlar ishlab chiqilmaganligini ko'rsatdi. Bu esa o'z o'rnida mazkur mavzuni alohida o'rganish zaruratini taqozo etdi. Kopulyativ frazeologik birliklarni farqli belgilarini aniqlash, leksikografik izlanishlar va tarjimalar jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan kopulyativ frazeologik birliklarni farqlash maqsadga muvofiq sanaladi. Mazkur maqolada mavzuga oid nazariy qarashlar tahlili va to'plangan faktik materiallar tasnifi asosida kopulyativ frazeologik birliklarning modellari, tarkibiy qismlar o'rni, juftlashgan iboralar, atamalar, sinonimik va bir o'zakli juft birikmalar, birnecha komponentli fe'liy frazeologizmlar, ularning vazifalari hamda farqli belgilari haqida mulohaza yuritiladi. Ma'lum bo'ladiki, pashtu tilida kopulyativ frazeologik birlik tuzilishiga ko'ra leksik tarkibga ega bo'lgan so'z birikmasiga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlikdir. Kopulyativ frazeologik birliklar - bir grammatik qatorga oid turg'un so'z birikmalari bo'lib, komponentlar orasida u biriktiruvchi bog'lovchisining Jaw varianti ham kuzatildi.

Kalit so'zlar: kopulyativ frazeologik birlik, semantik yaxlitlik, juft brikma, biriktiruvchi bog'lovchi, komponent, atamalar, sinonimik va bir o'zakli juft birikmalar, birnecha komponentli fe'liy frazeologizmlar.

Abstract: In linguistics, especially in Afghan linguistics, the issue of copulative phraseological units is of scientific and practical importance. The boundary of this unit requires defining a clear criterion. Issues related to copulative phraseological units in Pashto appear briefly in the grammatical essays of some orientalists, but among them the analysis of this topic is recorded in a short and very general way. After several theoretical studies, the idea of copulative phraseological units has expanded in linguistics over time, but its classification in Pashto language studies has not yet been

reflected. If we take into account that the research on the issue was published fifty years ago and that the issue of copulative phraseological units is considered as a component of the general issues of Pashto lexicology and that this topic was not a separate research object, it will be known how relevant and important the topic is for Afghan linguistics. The analysis of the works of Afghan linguists showed that no specific criteria of copulative phraseological units have been developed in the Pashto language. This made it necessary to study this topic separately. Determining the different signs of copulative phraseological units has an effect on the process of lexicographic research and translations. For this reason, it is considered appropriate to distinguish copulative phraseological units. In this article, based on the analysis of theoretical views on the topic and the classification of collected factual materials, models of copulative phraseological units, the order of components, pairs, terms, synonymous and single-stem paired compounds, verb phraseology with several components, their functions and the differences are discussed. It becomes clear that, according to the structure of the copulative phraseological unit in Pashto, it is equivalent to a word combination that has a lexical content, semantically it means a whole, generalized meaning, is not created in the process of speech, but is introduced into the speech ready. Copulative phraseological units are stable word combinations belonging to one grammatical line, among the components, the variant of *ṣaw* of the connecting link *ṣu* was also observed.

Key words: copulative phraseological unit, semantic integrity, pairs, conjunctions, component, terms, synonymous and single-stem pairs, verb phraseology with several components.

Аннотация: В языкознании, особенно в афганском языкознании, вопрос о копулятивных фразеологизмах имеет научное и практическое значение. Границы этого подразделения требуют определения четкого критерия. Вопросы, связанные с копулятивными фразеологизмами в пушту, кратко фигурируют в грамматических очерках некоторых востоковедов, но среди них анализ этой темы зафиксирован в краткой и весьма общей форме. После нескольких теоретических исследований представление о копулятивных фразеологизмах со временем расширилось в лингвистике, но его классификация в афганском языковедении до сих пор не нашла отражения. Если учесть, что исследование по данной проблеме было опубликовано пятьдесят лет назад и что вопрос о связочных фразеологических единицах рассматривается как составная часть общих вопросов лексикологии пушту и что данная тема не была отдельным объектом исследования, то станет ясно, насколько актуальна и важна эта тема для афганского языкознания. Анализ работ афганских лингвистов показал, что в языке пушту не выработано конкретных критериев копулятивных фразеологизмов. Это вызвало необходимость изучения этой темы отдельно. Определение разных признаков копулятивных фразеологизмов оказывает эффективное влияние на процесс лексикографических исследований и переводов. По этой причине считается целесообразным выделять копулятивные фразеологизмы. В данной статье на основе анализа теоретических взглядов на тему и классификации собранных фактических материалов рассматриваются модели копулятивных фразеологических единиц, порядок компонентов, парные фразы, терминов, синонимичных и однокоренных парных соединений, глагольные фразеологизмы с

несколькими компонентами, их функции и различия. Становится ясно, что по структуре копулятивный фразеологизм в языке пушту эквивалентен словосочетанию, имеющему лексическое содержание, семантически он означает целое, имеющую обобщенное значение, не создается в процессе речи, а вводится в речь в готовом виде. Копулятивные фразеологические единицы являются устойчивыми словосочетаниями, принадлежащими одному грамматическому ряду, среди компонентов также наблюдался вариант *او* *aw* соединительного союза *ۚ* и.

Ключевые слова: копулятивные фразеологические единицы, смысловая целостность, парные соединения, соединительный союз, компонент, термины, синонимические и однокоренные парные соединения, глагольные фразеологизмы с несколькими компонентами.

Asrlar davomida kopulyativ frazeologizmlar turg'un va tayyor shakllarda har bir tilning stilistikasi, lug'ati tarkibida qo'llanilib, u yoki bu tilning obrazli tasvirlarini, jonli ifodaviyligini ta'minlashda keng qo'llaniladigan vositalardandir.

Kopulyativ frazeologik birliklar - doimiy leksik tarkibga ega bo'lgan so'z birikmalari bo'lib, har qanday frazeologik birliklar kabi kopulyativ frazeologik birliklar ham tilda tayyor holda namoyon bo'lib, semantik yaxlitlikka ega ekanligi ma'lum¹.

Pashtu tilidagi frazeologik birliklar masalasi, xususan kopulyativ frazeologizmlar deyarli o'rganilmay kelinayotgan sohalaridan biri deb hisoblash mumkin. To'g'rirog'i, pashtu tilshunosligida kopulyativ frazeologizmlarning struktur-semantik tadqiqiga oid maxsus biron bir tadqiqot uchratilmadi. Ammo R.Sikoevning maqolasida² pashtu tilidagi juft brikmalarning semantik uyg'unligiga ko'ra, qaysidir ma'noda, ular frazeologik brikma turi sifatida qaralishini eslatib o'tgan edi. Shuningdek, pashtu tilida fe'l frazeologik birliklarining tarkibi, struktur tiplari, ularning semantikasi, xususan, pashtu tilida qo'shma so'zlarning fe'l frazeologizmlari negizida yasalishi muammolarini maxsus tadqiq etgan A.G'aniev monografiyasida frazeologik so'z yasalishi muammolari haqida so'z yuritganda aynan frazeologik birliklarga oid: ملاتړ، ملاتړلی، ختیځپژندنه ملاتړ، ملاتړلی، ملاتړی kabi brikmalarni qayd etib o'tadi. Ammo olim biron bir yerda ularni kopulyativ frazeologik birliklar sifatida tilga olmaydi.

Pashtu tilida kopulyativ frazeologik birliklarni yasallashida ham eng muhim derevativ element "او" *aw*, ba'zan "و" *u*, o bog'lovchisining o'rni juda muhimdir.

Pashtu tilida aksariyat frazeologik kopulyativlar ot+ot modeli asosida yasallashi kuzatilib, bunda "او" *aw* biriktiruvchi bog'lovchisi asosan bir xil sintaktik funksiyani bajaraotgan so'zlarning brikirish funksiyasi bilan izohlanib, bunda u o'zining sof bog'lovchilik ma'nosini yo'qotib qo'shilayotgan ikki ot so'zlarining bevosita komponentiga aylanib ketishi kuzatiladi. Masalan: لاس او پښی وهل/اچول *lās aw pše wahəl/ačawəl* 'harakat qilib ko'rmoq' (so'zma-so'z: qo'l va oyog'ini urmoq/tashlamoq). Ushbu frazeologik birlikda "او" *aw* biriktiruvchi bog'lovchisi o'zining bog'lovchilik funksiyasidan to'la voz kechish holatiga duch kelamiz.

Quyidagi ikki komponentli turg'un (frazeologik) brikmalarda ham aynan shu holat kuzatiladi. عشق و محبت *ešq-gam-o ġossa* 'g'am-g'ussa', 'anduh', غم و غصه *ġam-o ġossa* 'g'am-g'ussa', 'anduh', فکر و ذکر *fekr-o zekr* 'o'y', 'hayol', 'o'y', 'hayol'.

¹ Нуриддинов Н.Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Монография. – Т., 2020. – Б.53.

² Сикоев Р.Р. Парные слова в современном литературном пушту и их роль в словообразовании //Индийская и иранская филология. Вопросы грамматики. – М., 1976. – С.176.



o mohabbat ‘sevgi’, ‘muhabbat’. Shuni ham ta’kidlash kerakki, “*aw*” bog‘lovchisi qo‘shilayotgan ikki ot komponentli (ba’zan sifat) so‘zlarning unli yoki undosh bilan tugashiga qarab *aw*, *au*, *o* kabi bir necha variantlarda so‘zlarga qo‘shilishi mumkin. Ya’ni agar birinchi komponent undosh bilan tugagan bo‘lsa u holda *aw*, *au* bog‘lovchisi talaffuz va o‘qish jarayonida *u*, aksariyat holatlarda *o* tarzida (فكر و ذكر *fekr-o zekr* ‘o‘y’, ‘hayol’) talaffuz qilinadi. Agar qo‘shilayotgan ikki komponentning birinchisi muannas jinsli bo‘lib, *a*, *e*, *o* unilari yoki *ā* ko‘plik vositali shaklida bo‘lsa, u holda bog‘lovchi *aw*, *au* shaklida talaffuz qilinadi. Masalan:

خبريالان د تولني سترگي او غورونه دي، په تولنه کيني خبرتيا لپاره خبرياله ورورولي مهم کردار ترسره کوي.¹

[xabaryālān də ʔolane stərge aw ġwajuna di, pə ʔolana kʃe xabartiyā ləpāra xabaryāla wrorwali muhəm kardār tər sara kawī]

“Jurnalistlar jamiyatning ko‘z-qulog‘i, jurnalistlar birodarligi jamiyatda axborot olishda muhim rol o‘ynaydi”.

هغي د غابونو او نوکانو سره مخالفت وکړ.²

[haġe də ġāʃuno aw nukāno sara muxāləfāt wukər]

“U **tish-tirnog‘i** bilan qarshi chiqdi”.

Bu jumalalarda *ġāʃuno aw nukāno* غابونو او نوکانو *sterge aw ġwajuno* سترگي او غورونه kopulyativ turg‘un brikmalar ‘ko‘z-quloq’ ya’ni ‘xabardor bo‘lib turish’, ‘tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatish’ kabi frazeologik birliklarni vujudga kelishida muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotchi A.G. G‘aniev pashtu tilidagi fe‘l frazeologiyasiga bag‘ishlangan ocherkining frazeologik parallellarning struktur-semantik xususiyatlari bo‘limida pashtu tilidagi frazeologik birliklarni 4 guruhga bo‘lgan holda tadqiq etadi³: 1) struktur-semantik jihatdan bir-biriga mos keladigan ayni bir-xil frazeologizmlar: *bexwanda xabəri kawəl* ‘bemaza gap qilmoq’, *be lās-o be pʃo kedəl* ‘qo‘l oyoqsiz bo‘lmoq’; 2) mazmunan ayni, ammo shaklan farqi bor: *uʃd lāsuna larəl* ‘qo‘li uzun bo‘lmoq’, ‘katta imkoniyatga ega bo‘lmoq’, *tər zɾə wine pācedl* ‘yurak-bag‘ri qon bo‘lmoq’ (so‘zma-so‘z: yuragidan qon oqmoq); 3) shaklan mos keladi-yu, ammo mazmunan farqi bor: *dzān wrək kawəl* ‘o‘zini yo‘qotib qo‘ymoq’, *noo‘rin mag‘rur bo‘lmoq*, *xāwri kedə* ‘yer bilan bir bo‘lmoq’, ‘qattiq uyalmoq’; 4) umumiy semantik obrazga ega frazeologizmlar: *də largo pər ās sparawəl* ‘yog‘och otga mindirmoq’ (so‘zma-so‘z: tobutga solmoq), *də lās aw pʃo cxa lwedəl* ‘qo‘l oyoqdan qolmoq’, ‘kuchsiz bo‘lib qolmoq’.

Yuqorida keltirilgan misollarda birinchi va to‘rtinchi guruhda keltirilgan *be lās-o be pʃo kedəl* ‘qo‘l oyoqsiz bo‘lmoq’, *də lās aw pʃo cxa lwedəl* ‘qo‘l oyoqdan qolmoq’, ‘kuchsiz bo‘lib qolmoq’ kabi misollarda “*o*” biriktiruvchi bog‘lovchisi “*o*” deb talaffuz qilinib, uning “*aw*” varianti ham uchradi. Ushbu misollar - ma’nosini tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari asosida izohlash mumkin bo‘lgan frazeologik birliklardir.

Demak, pashtu tilida kopulyativ frazeologik birlik - tuzilishiga ko‘ra leksik tarkibga ega bo‘lgan so‘z birikmasiga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlikdir.

R.R. Sikoev *də lās-o pʃo kār kawəl* ‘jismoniy mehnat bilan shug‘illanmoq’ (so‘zma-so‘z: qo‘l-oyog‘i bilan ishlamoq) misoliga quyidagi izohni keltirib o‘tadi: “ushbu frazeologik qurilmada vositali kelishikning ko‘plik shaklini ko‘rsatuvchi va ko‘rsatkichi ikkita

¹ <https://pashto.app.com.pk/pashto/162869/>

² <https://en.opentran.net/english-pashto/tooth.html>

³ А.Г. Ганиев. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т., 1985. – С.143-147.

komponentga emas, balki butun birikmaga birikadi. Agar ikki komponentgagina xos bo'lganida edi uning asos qilib olingan ilk shakli لاسو پښې *lās-o pše* muannas ko'plik shaklida turgan bo'lar edi"¹.

لاس او پښې وهل/اچول *lās aw pše wahəl/ačawəl* misolda esa komponentlar o'zaro birlashib 'harakat qilib ko'rmoq' ma'nosini bergan (so'zma-so'z: qo'l va oyog'ini urmoq/solmoq)².

Aytilganidek, pashtu tilida ikki komponentli turg'un birikmalar kam emas (فکر و ذکر *fekr-o zekr* 'o'y', 'hayol', غصه و غم *ġam-o ġossa* 'g'am-g'ussa', 'anduh', عشق و محبت *ešq-o mohabbat* 'sevgi', 'muhabbat'). Ushbu so'z birikmalarining turg'un bo'lishiga sabab, ularning tez-tez ishlatilishi va nutqda tayyor holda namoyon bo'lishidadir. Aksar hollarda misollar tarkibidagi birinchi komponent undosh harfga tugagani uchun biriktiruvchi bog'lovchi "o" tarzida talaffuz qilinadi. Shuningdek, misollardagi tarkibiy qismlar o'rni o'zgarmas, aks holda kopulyativ frazeologik birliklar yaxlitligiga putur yetadi.

Kopulyativ frazeologik birliklarga shuningdek, *juftlashgan iboralar, atamalar, bir ildizli arab so'z brikmalari, birnecha komponentli fe'liy frazeologizmlar* kirishi holatlari M.G. Aslanovning "Пушту-русский словарь"³, Qalandar Mo'mand, Farid Sahroiyning "Pashtu tili izohli lug'ati"⁴, Muhammad Hoshim Rahimiynig "Pashtu-ingliz lug'ati"⁵, S.Rishtinning د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه *də pašto ištiqāquna aw tarkibuna* "Pashtu tilida so'z yasalihi va ularning tarkiblari"⁶ kabi qator asarlar asosida o'rganilib chiqildi va quyida ularni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Juftlashgan iboralar kopulyativ frazeologik birliklar orasida alohida e'tiborga loyiq bo'lgan va semantik nuqtai nazaridan umumiy ma'nosi o'zining tarkibiy qismlari yig'indisidan kelib chiqadigan iboralardir.

Fors tilida پدر و مادر *pedar-o mādar* 'ota-ona' (родители) misolida komponentlar o'rtasidagi munosabatlar turtki bo'lib, umumiy ma'no xulosa qilinadi. Bu kabi iboralar erkin so'z birikmalari bilan omonimdir. "Ota-ona" so'zining o'zi mohiyatiga ko'ra ikkita sub'ekt ishtirokini bildiradi. پدر *pedar-o mādar* kabi iboralar ikki ma'noli 1) ota va ona - erkin so'z birikmasi va 2) ota-ona - turg'un iboraning paydo bo'lishi natijasida hosil bo'lgan kopulyativ frazeologik birlik sifatida izohlanadi⁷.

Rus afg'onshunoslaridan Z.M. Kalinina pashtu tilidagi مور و پلار *moroplār* 'ota-ona' (родители) (mor 'ona', plār 'ota') misolini kopulyativ qo'shma so'z deb hisoblasa, R.R. Sikoyev ushbu misolni "frazeologik chatishma" sifatida qabul qilsa ham bo'ladi deb hisoblaydi⁸. Professor M.Ziyor esa ushbu misolni joylashgan tartibi o'zgargan holda keltirib o'tadi: پلار و مور *plārōmor* 'ota-ona'⁹. Ushbu misolda "ota" leksemasini birinchi komponentda kelishi ba'zida dialektal xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

پلار و مور *mor-o-plār* turg'un birikmasini kopulyativ qo'shma so'zlar qatoriga kiritish, bizning nazarimizda ham to'g'ri emas. Pashtu tilida antonimik juft birikmalar o'rtasida ikki turi kuzatiladi.

¹ Сикоев Р.Р. Парные слова в современном литературном пушту и их роль в словообразовании //Индийская и иранская филология. Вопросы грамматики. – М., 1976. – С.178.

² К.А. Лебедев, Л.С. Яцевич, З.М. Калинина., Русско-пушту словарь. – М., 1983. – С.698.

³ М.Г. Асланов., Пушту-Русский словарь. – М., 1985.

⁴ قلندر مومند، فرید صحرايي، پښتو لغت دریاب. لاهور، ۱۹۹۴ کال.

⁵ محمد هاشم رحيمي، پښتو انگلیسی قاموس. کابل، ۲۰۰۶ کال.

⁶ ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه، کابل، ۲۰۰۴.

⁷ Талыбова С.Э. Копулятивные словосочетания в персидском языке. – М., 2002. – С.53.

⁸ Р.Р. Сикоев, Именное словообразование в современном литературном языке пушту, Автореферат диссертации, – М., 1967. – С.19.

⁹ مجاور احمد زيار. ويې پوهنه. کابل، ۱۹۸۱. ص-۲۷۱.



Birinchidan, bo'laklari to'la ma'nosini yo'qotgan antonimik birikmalar (bunday brikmalar kopulyativ qo'shma so'zlarga xos), va ikkinchidan bo'laklari o'z lug'aviy ma'nosini to'la saqlab qolgan birikmalar. Kopulyativ qo'shma so'zlarning yetakchi belgisi birinchi navbatda uning morfologik bir butunligidan iborat bo'lib, bu so'zning butunligicha muayyan so'zni o'zgartiruvchi qo'shimchalar qabul qilishini talab qiladi. Undan tashqari, kopulyativ so'zlarda so'zlarning grammatik rodi, demakki, ularning grammatik shakllanishi ikkinchi komponentiga bog'liq. Shu asosda *پلار مور و* *mor-o-plar* birikmasi *muzakkar jins birlikdagi* ot ko'rinishida bo'lishi kerak edi. Chunonchi, o'tgan zamonda kesim uchinchi shaxs birlik muzakkar jins shaklida bo'lishi kerak edi, *holbuki u uchinchi shaxs ko'plik shaklida qo'yilgan*:

په همدې ترڅ کې مې *مور و پلار* هم راورسېدل.¹

[pə hamde trets ke me mor-o-plar ham rawurasedəl]

“Bu orada ota-onam ham yetib kelishdi”.

Demak, *پلار مور و* *mor-o-plar* misoli o'z navbatida bo'laklarning o'zaro qo'shma so'zda birlashmagaindan darak beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, akademik V.V. Vinogradov juftlashgan so'z birikmalari uchun “teng birikma” atamasini saqlab qolish mumkin deb hisoblaydi². Bunday birikmalar leksik-semantik turg'unlashuvdan o'tgan va nominativ vazifada qo'llangan³.

Pashtu tilida tarkibiy qismlarining yig'indisidan kelib chiqadigan “و” biriktiruvchi bog'lovchisi bilan bog'lanadigan juft so'z birikmalar ham kam emas. Masalan, *نر و ښځه* *nar-o* *şadza* ‘barcha’ (so'zma-so'z: erkak va ayol), *ليک و لوست* *lik-o lwast* ‘xat-savod’, *یار و دوست* *yār-o dost* ‘do'st-birodar’.

تعلیم په نر و ښځه فرض دي⁴

[talim pə nar-o şadza farz de]

“Ta'lim barchaga majburiydir” (so'zma-so'z: ta'lim erkak va ayolga majburiydir).

Yuqoridagi misollarda ma'no kengaymay, umumlashish, jamlik ma'nolari ifodalanayapti, ya'ni har ikki qismdan anglashilgan subyekt va predmetlarning umumiy nomi kelib chiqqan.

Atamalar: Kopulyativ frazeologik birliklar orasida vazirliklar, muassasalar, jurnallar, gazetalar va boshqalarning nomlarini aks ettiruvchi ko'plab termin-atamalar mavjud. Bunday frazeologik birikmalar turg'undir.

Kopulyativ frazeologik birliklar atamaları tarkibiy qismlari birlashgan va ularning ko'chma ma'nosi sintetik yo'l bilan hosil qilinadi⁵. Masalan: *شونې او روزني* *şowune aw rozane* ‘ta'lim-tarbiya’ (so'zma-so'z: *شونې* *şowune* ‘talim’, ‘o'qitish’, va *روزني* *rozane* ‘tarbiya’); *تعلیم و تربیت* *talim-o tarbiyat* ‘ta'lim’ (so'zma-so'z: *تعلیم* *talim* ‘o'qitish’, va *تربیت* *tarbiyat* ‘tarbiya’); *ننگ و ناموس* *nang-o nāmus* ‘or-nomus’ (so'zma-so'z: *ننگ* *nang* ‘shon’, ‘izzat’, ‘obro’, va *ناموس* *nāmus* ‘nomus’); *غیرت و ننگ* *nang-o ghayrat* ‘shon-shavkat’ (so'zma-so'z: *ننگ* *nang* ‘shon’, ‘izzat’, ‘obro’, va *غیرت* *ghayrat* ‘g'ayrat’); *نام و نشانی* *nām-o nešani* ‘xabar’, ‘ma'lumotlar’ (so'zma-so'z: *نام* *nām* ‘ism’ va *نشانی* *nešāni* ‘manzil’).

¹ اکبر بری. د سپوږمۍ سرته، کابل، ۲۰۰۴م کال. ص- ۳۳.

² В. В. Виноградов., Грамматика русского языка, – М., 1954. – С.42.

³ Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М., 1981. – С.77.

⁴ <https://Sahibzada3154/>

⁵ Bu hodisa juda ko'p tillarga, jumladan, fors tiliga ham xosdir. Qarang: Талыбова С.Э. Копулятивные словосочетания в персидском языке. – М., 2002. – С.54.



Ma'lumki, terminologik ma'no ma'lum bir sohalarga oid tushunchalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, ular bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionalikka ega bo'lmashligi kabi belgilari bilan farqlanadi¹.

Atamalar - tipik frazeologik birliklar kabi, zarur frazeologik xususiyatlarga ega: leksemik tarkibning barqarorligi, bu tarkibiy qismlarni leksik sinonimlar bilan almashtirishning mumkin emasligi, umumiy ma'noning barqarorligi va yaxlitligi, sintaktik tuzilmaning barqarorligi bilan ifodalanadi. Bu xususiyatlarning barchasi atamalarni tilning tayyor birliklari sifatida takrorlanishini ta'minlaydi. Kopulyativ frazeologik birliklar stilistik jihatdan neytral, metaforik xususiyatga ega emas va odatda nominativ funktsiyani bajaradi².

Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik atamalar vazirlik va idoralar nomlarida ham qo'llanilishi kuzatildi. Masalan: د اوبو او برېښنا وزارت *də ubo aw brešnā wuzārat* 'suv xo'jaligi va energiya vazirligi', د ترانسپورت او هوايي چلند وزارت *də transport aw hawāyi čaland wuzārat* 'transport va havo kommunikatsiyalari vazirligi'³, پوځي او ملکي مرسته *pauḍi aw mulki mrasta* 'harbiy va fuqarolik ishlari bo'yicha ko'mak' kabi.

Sinonimik va bir o'zakli juft birikmalar: Pashtu tilida semantikasi jihatidan sinonim komponentli, bir-xil o'zakli so'zlarning kombinatsiyasi yozma va og'zaki nutqda juda keng tarqalganligi ma'lum. O'zakning umumiyligi esa undagi so'zlarning kelib chiqishi va ularning ma'nolari yaxlitligining belgisidir⁴. Materiallarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, pashtu tilida pashtu-pashtu, pashtu-arab, pashtu-fors yoki aralash kopulyativ juft so'z birikmalarining modellari mavjud va bular orasiga:

a) ikkala komponenti ham "aslida" *pashtu* so'zlari bilan ifodalanagan kopulyativ juft so'z birikmalari kiradi:

روغ جوړ *rogh jor* 'sog'-salomat';
ستړی ستومانه *staray stumāna* 'charchagan-holdan toygan';
وچ کلک *wuč klak* 'quruq-qattiq';
څېړنه لټونه *černa laṭawəna* 'axtaruv-qidiruvlar'.

b) komponentlari ikki tilli so'zlar bilan ifodalanagan sinonim birikmalar:

(pashtu-arab) مينه موحبت *mina muhabbat* 'sevgi-muhabbat';
(pashtu-arab) بېلتون او فرق *beltun aw farq* 'farq-farq';
(pashtu-fors) چټل او چرک *čaṭal aw čerk* 'kir-iflos';
(pashtu-fors) مزه خوند و مزه *khwand-o maza* 'ta'm-maza';
(fors-hind) جنگ جگره *djang djagra* 'urush-jang'.

v) ikkala komponent ham o'zlashgan so'zlar bilan ifodalanuvchi sinonimik juft birikmalari:

(arab-fors) غم و درد *gham-o dard* 'g'am-alam';
(fors-hind) پاک سوتره *pāk sutra* 'toza-toza';
(arab-fors) نقش و نگار *naqš-u negār* 'rasm-surat';
(arab-ingliz) شوق او اينترس *šawq aw intres* 'qiziqish-qiziqish'⁵.

¹ A.Хожиев., Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т., 2002. – Б.104.

² Талыбова С.Э. Копулятивные словосочетания в персидском языке. – М., 2002. – С.54.

³ Иномхожаев Р. Язык пашто. – Т., 2018. – С.7.

⁴ Белкин В.М. Арабская лексикология. – М., 1975. – С.62.

⁵ Yuqorida keltirilgan bir qancha misollar lug'atlardan to'plangan misollar asosida xulosalangan. Qarang:

قلندر مومند، فرید صحرايي، پښتو لغت درياب. لاهور، ۱۹۹۴ کال،

محمد هاشم رحيمي، پښتو انگلیسی قاموس. کابل، ۲۰۰۶ کال،

خوشحال فولادي، فولادي اکسفورد انگلیسی پښتو قاموس. پېښور، ۲۰۰۹ کال،





Ushbu misollarda kopulyativ soʻz birikmalarining umumiy qiymati har bir komponentning leksik qiymatidan kelib chiqqanligi kuzatiladi. Koʻrinib turibdiki, bir-xil oʻzakli soʻzlarning kombinatsiyasi semantik jihatdan bir-biriga yaqin boʻlganligi uchun pashtu tilida oʻzlashgan tildan olingan shaklda ishlatiladi. Bunday oʻzaro sinonim boʻlgan ikki tilli soʻzlar birikuvi aytilmoqchi boʻlgan maʼnoni kuchaytirish va taʼkidlashga xizmat qiladi.

Sinonimlarning eng koʻp soni boshqa tillar bilan aloqada boʻlgan tilda paydo boʻlishi maʼlum. Pashtu tilining lugʻat tarkibining aralash tabiati, shuni koʻrsatadiki, oʻzlashmalarning aksariyati arabcha va forsha soʻzlardir.

Shu bilan birga, hozirda pashtu tilida koʻpincha bir xil arabcha soʻzning birlik va koʻplik shaklidagi kopulyativ birikmasiga juda koʻp misollarni keltirish mumkin. Taʼkidlash joizki, bunday arab tilidagi misollar pashtu tili tarkibiga chuqur kirib borgan. Masalan, حال احوال *hāl ahvāl* ‘hol ahvol’ turgʻun birikmasida احوال *ahvāl* حال *hāl* ning koʻplik shakli boʻlib, bir maʼno (“salomatlik holati”) uchun xizmat qiladi.

Oʻzaro bogʻlangan bunday birikmalar nutqda emotsional taʼsir hosil qiladi. Bunday birikmalar barqaror. Masalan: رسم و رسوم *rasm-o rosum* ‘urf-odat’, نظم و نظام *nazm-o nezām* ‘tartib’.

Pashtu tilida ham baʼzida ayni bir soʻzning boshqa grammatik shakli bilan birikib, sinonimik juftlik hosil qilgan variantlari mavjud: کاله کور *kor kālā* ‘uy-uy’ (کاله *kālā* - کور *kor* ning vositali kelishikdagi birlik shakli¹), اخله واخيسته *axla waxista* ‘olmoq-olmoq’ (اخيسته *axistāl* feʼlining hozirgi va oʻtgan zamon asosidan).

Bunday bir oʻzakli kopulativ birikmalar pashtu tilida soʻzlarning maʼno va funksional yaqinligi tufayli, oʻzaro bogʻliqligi natijasida vujudga kelgan. Bu kabi birikmalarda tarkibidagi soʻzlarning leksik maʼnosi saqlanilgan, biri ikkinchisining maʼnosini reallashtirgan.

Birnecha komponentli feʼliy frazeologizmlar: Pashtu tilidagi frazeologik iboralarining salmoqli qismini feʼliy frazeologizmlar tashkil etishi olimlar tomonidan isbotlab berilgan. Masalan S.Rishtin birinchi bor qayta nashr etgan د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه *də pašto ištiqāquna aw tarkibuna* nomli asarida² pashtu tili feʼliy frazeologizmlarga juda boy ekanligini isbotlash maqsadida bu tilda oʻnlab feʼllar ishtirokida vujudga kelgan turgʻun frazeologik birikmalar haqida toʻxtalib, birgina واهل *wahāl* “urmoq” feʼli ishtirokida 41 ta frazeologik birikmani yoki اچول *ačawāl* “tashlamoq, uluoqtirmoq” feʼli ishtirokidagi 14 ta frazeologik birlikni keltirib oʻtadi. Shuningdek, bevosita yordamchi feʼllar ishtirokida oʻnga yaqin زړه *zrə* ‘yurak’, سترگه *sterga* ‘koʻz’, لاس *lās* ‘qoʻl’, ژبه *žəba* ‘til’, مخ *məkh* ‘yuz’, ‘bet’, سر *sar* ‘bosh’, غور *gəwaj* ‘quloq’, خوله *khula* ‘ogʻiz’, پښه *pša* ‘oyoq’, غاره *gāra* ‘boʻyin’ kabi somatik leksemalardan yasalgan feʼliy frazeologizmlarga misollar keltiradi. Umuman olganda pashtu tili matnlar toʻplamlarida minglab feʼliy frazeologik birikmalar, ideomatik obrazli ifodali jummalarni uchratish mumkin.

A.G. Gʻaniev pashtu tilida feʼliy frazeologizmlar haqida alohida tadqiqot olib borganligini yuqorida eslatgan edik. Lekin pashtu tilida qoʻshma soʻz masalasiga bagʻishlangan tadqiqotlarda kopulyativ frazeologizmlar, xususan, feʼliy kopulyativ frazeologizmlar masalasi chetlab oʻtilgan. Shuni ham taʼkidlash lozimki, S.Rishtin, A.Gʻaniev yoki M.G. Aslanovning mashxur “Пушту-Русский словарь”ida keltirilgan juda koʻp misollar aynan feʼliy kopulyativ frazeologik birikmalardan tashkil topganligi kuzatiladi.

М.Г. Асланов., Пушту-Русский словарь. – М., 1985.

К.А. Лебедев., Л.С. Яцевич., З.М. Калинина., Русско-Пушту словарь. – М., 1983.

¹ М.Г. Асланов., Пушту-Русский словарь. – М., 1985. – С.700.

² ص. رشتين. د پښتو اشتقاقونه او ترکیبونه. کابل، ۲۰۰۴.



O'rganilgan materiallar asosida ta'kidlash mumkinki, pashtu tilidagi fe'liy kopulyativ frazeologizmlar ikki va undan ortiq komponentlardan vujudga kelgan bo'lib, kopulyativ birlikni yuzaga keltirayotgan ikki ism, fe'l u yoki bu fe'l va ko'pincha interfiks *aw, o* yordamida yasaladi. *nən-u sabā kawəl* (so'zma-so'z: bugun va ertani qilmoq) - 'ishni paysalga solmoq, bahona qilmoq'¹; *də kibr aw ġurur pə ās spāredəl* (so'zma-so'z: kibr va g'urur otiga minmoq) - 'ortiqcha mag'rurlanishga berilmoq'²; *wayəl aw awredəl* (so'zma-so'z: aytmoq va eshitmoq) - 'aytmoq va tinglashni ham bilmoq'³; *penž-o špaġ wayəl* (so'zma-so'z: 5-6 demoq) - 'gap o'yini qilmoq'⁴; *khapa aw marawar kedəl* (so'zma-so'z: hafa bo'lmoq) - 'arazlamoq'.

Pashtu tilida fe'liy kopulyativ frazeologizmlarni vujudga kelishida *aw, o* interfiksidan tashqari yana qator ko'makchilar yordamida yasalgan kopulyativ birikmalar + fe'l orqali frazeologik ma'no kasb etgan birikmalar ham kam emas. *lā dzmeke tər āsmāna farq larəl* (so'zma-so'z: yerdan to osmongacha farqlamoq) - 'yer bilan osmongacha farqqa ishora'⁵; *də səlo guluno na ye yaw gul ham na de ġwardəl* (so'zma-so'z: yuz gulidan biri ham ochilmagan) - 'hali yosh, bor go'zalligi ham ochilmagan'⁶; *pəša pə pala išodəl* (so'zma-so'z: oyog'ini soyasiga qo'ymoq) - 'izidan bormoq'⁷; *lās pə lās wahəl* (so'zma-so'z: qo'lni qo'lga urmoq) - bu yerda kinoya qilinyapti, ya'ni 'qo'lni qo'lga afsus bilan urish'; *khabara lə khabare paydā kre* (so'zma-so'z: gapdan gap keladi) 'gapni kovlasa gap kelib chiqadi'⁸; *čip čip katəl* (so'zma-so'z: ko'zini chipillatmoq) 'hayron bo'lmoq'.

Bunday birikmalarining umumiy qiymati har bir komponentning leksik qiymatidan kelib chiqqan bo'lib, ularga ildizning umumiyliigi, undagi so'zlarning kelib chiqishi va ma'nolari yaxlitligi xosdir.

Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklarni o'rganish va tahlil qilish esa quyidagi **xulosalarga** olib keldi: kopulyativ frazeologik birliklar nutqda komponentlarining turg'unligi va takrorlanuvchanligi, birikmalarining semantik jihatidan ajralmasligi bilan harakterlanadi; pashtu tilida kopulyativ frazeologik birlik tuzilishiga ko'ra leksik tarkibga ega bo'lgan so'z birikmasiga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlikdir; "kopulyativ frazeologik birliklar - bir grammatik qatorga oid turg'un so'z birikmalari bo'lib, ularga *ot+biriktiruvchi bog'lovchi+ot* yoki, *ot+ot* modeli (komponentlari juft yoki sinonim yoki bir o'zakli), *sifat+biriktiruvchi bog'lovchi+sifat* yoki, *sifat+sifat* modeli xos ekanligi kuzatildi; komponentlar orasida "و" biriktiruvchi bog'lovchisining "aw" varianti ham uchradi; kopulyativ frazeologik birliklarda misollardagi tarkibiy qismlar o'rni o'zgarmas, aks holda kopulyativ frazeologik birliklar yaxlitligiga putur yetadi; an'anaviy "juftlashgan iboralar" kopulyativ frazeologik birliklarga tegishli bo'lib, ushbu iboralarda semantika jixatidan umumiy ma'no komponentlarning yig'indisidan kelib chiqadi. Bunday birikmalar leksik-semantik turg'unlashuvdan o'tgan va

قاموسى مختصر. فرازيولوژى درى با ترجمه پښتو و اوزبک. کابل، ۱۳۶۲. ۴۹-ص.

² Ko'rsatilgan manba. B. 56.

³ Ko'rsatilgan manba. B. 58.

⁴ Ko'rsatilgan manba. B. 83.

⁵ Ko'rsatilgan manba. B. 46.

⁶ Ko'rsatilgan manba. B. 44.

⁷ Ko'rsatilgan manba. B. 79.

⁸ Ko'rsatilgan manba. B. 206.



nominativ vazifada qo'llangan. Birikmalarda ma'no kengaymay, umumlashish, jamlik ma'nolari ifodalanib, har ikki qismdan anglashilgan subyekt va predmetlarning umumiy nomi kelib chiqqan; ba'zi vazirliklar, muassasalar, jurnallar, gazetalar va boshqalarning nomlarini aks ettiruvchi atamalar ham kopulyativ frazeologik birliklarga mansubligi kuzatildi, chunki bunday frazeologik birikmalar turg'un, tarkibiy qismlari birlashgan va ularning majoziy ma'nosi sintetikdir. Bunday kopulyativ frazeologik birliklar stilistik jihatdan neytral, metaforik xususiyatga ega emas va odatda nominativ funksiyani bajaradi.

Shuningdek, pashtu tilida semantikasi jihatidan sinonim komponentli yoki bir-xil ildizli so'zlarning kombinatsiyasi ishtirokidagi kopulyativ frazeologik birliklar ham aniqlandi (روح جور *rogh jor* 'sog'-salomat', ستړی ستومانه *staray stumāna* 'charchagan-holdan toygan'; کور کاله *kor kālā* uy-uy (کاله *kālā* - کور *kor* ning vositali kelishikdagi birlik shakli), اخله واخیسته *axla waxista* olmoq-olmoq (اخیستل *axistal* fe'lining hozirgi va o'tgan zamon asosidan)). Bunday birikmalarining umumiy qiymati har bir komponentning leksik qiymatidan kelib chiqqan va ularga ildizning umumiyliigi, undagi so'zlarning kelib chiqishi va ma'nolari yaxlitligi xosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nuriddinov N.N. Fors tilida kopulyativ qoshma soz va erkin kopulyativ soz birikmalarining distinktiv belgilari. Monografiya. – T., 2020. – B.53.
2. Hojiev A., Tilshunoslik terminlarining izohli lugati. – T., 2002. – B.104.
3. Sikoev R.R. Parnie slova v sovremennom literaturnom pushtu i ikh rol v slovoobrazovanii//Indiyskaya i iranskaya filologiya. Voprosi grammatiki. – M., 1976. – S.176.
4. Sikoev R.R. Imennoe slovoobrazovanie v sovremennom literaturnom yazike pushtu, Avtoreferat dissertatsii, – M., 1967. – S.19.
5. Ganiev A.G. Ocherki po glagolnoy frazeologii literaturnogo pushtu. – T., 1985. – S.143-147.
6. Talibova S.E. Kopulyativnie slovosochetaniya v persidskom yazike. – M., 2002. – S.53.
7. Inomxojayev R. Yazik pashto. – T., 2018. – S.7.
8. Vinogradov V.V. Grammatika ruskogo yazika, – M., 1954. – S.42.
9. Rubinchik Yu.A. Osnovi frazeologii persidskogo yazika. – M., 1981. – S.77.
10. Belkin V.M. Arabskaya leksikologiya. – M., 1975. – S.62.
11. Lebedev K.A., Yatsevich L.S., Kalinina Z.M., Russko-pushtu slovar. – M., 1983. – S.698.
12. Aslanov M.G. Pushtu-Russkiy slovar. – M., 1985. – S.700.
13. Rishtin S., De pashto ishtiqaquna aw tarkibuna. Kobul, 2004.
14. Ziyar M., Wayi pohana. Kobul, 1981. – S.271.
15. Akbar Baray., De spujmey sterga. Kobul, 2004. – S. 33.
16. Qalandar Momand., Farid Sahroyi., Pashto lugat daryob. Lahor, 1994.
17. Muhammad Hoshim Rahimi., Pashto anglisi qomus. Peshovar, 2006.
18. Khushhol Felodi., Felodi Oksford anglisi pashto qomus. Peshovar, 2009.
19. Qomusi mukhtasar. Frazeoloji dari bo tarjima pashto wa uzbek. Kobul, 1362. – S.49.
20. <https://pashto.app.com.pk/pashto/162869/>
21. <https://en.opentran.net/english-pashto/tooth.html>
22. <https://Sahibzada3154/>